Birinchi kitobim
БИРИНЧИ КИТОБИМ



BASHORAT OTAJONOVA
БАШОРАТ ОТАЖОНОВА

# KUMUSH YOG'DULAR
КУМУШ ЁҒДУЛАР

Birinchi kitobim
БИРИНЧИ КИТОБИМ



BASHORAT OTAJONOVA

# KUMUSH YOG‘DULAR

She’rlar

Muhammad Siddiq kutubxonasi
@Muhammad_Siddiq

«Navro‘z» nashriyoti
Toshkent – 2019

KBK 84.(5O'zb)
B-01
UO'K 812.521

**Bashorat Otajonova**
**Kumush Yog'dular** (she'rlar). – Toshkent: «Navro'z» nashriyoti, 2019-y. 100 bet.

*Mas'ul muharrirlar:*
**Aziz SAID,**
**Nodir JONUZOQ**

*Bashorat o'z qishlog'ining yashil dalalari yoki vaqt va fasllar haqida yozadimi, sog'inch va armonlarini taftish qiladimi, bolalikdagi ertaklarni sog'inadimi – hamma vaqt o'z orzulari va hayotni muqoyasa qiladi, hayratlariga sizni sherik qiladi. Kutilmagan va ta`sirchan ifodalar, ko'p ma'noli ibora – obrazlar qo'llaydi: uning daqiqalari hayajonlanadi, aprel qo'lida savati bilan ko'chalarda sehrgar kabi sayr qiladi, saraton eski ko'ylagini yuvib marvartakning shoxiga iladi, osmon esa – go'dak to'la belanchakday tebranadi. Yosh shoiraning o'ziga xos she`rlari o'quvchilarga manzur bo'ladi degan umiddamiz.*

Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan nashrga tavsiya qilinib, «Ijod» jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-565-69-2

© Bashorat Otajonova, 2019-y.
© «Navro'z» nashriyoti, 2019-y.

* * *

*(Singlimga)*

Bizni qishloq tug'di!
Yashil dalalar,
Ko'nglimizni varrak qilib uchirdi!
Bulutlarni yordik sodda bolalar,
Osmon ko'zimizga hayrat ko'chirdi.

Tobora balandlab uchdik,
Varrakning
Ipi chuvalashdi.
Qishloq mung'aydi.
So'ng topa olmadi izlab, daraklab,
Quyoshga yo'l oldik biz – ikki daydi.

Quyosh – bo'ydoq shahar –
Olifta va tund!
Orzularni ekdik – xuddi yulduzlar.
Endi biz shaharlik, bolalik unut,
Sochlariga popuk qadalgan qizlar.

Har oqshom yo'llarga ko'z tikar qishloq,
Kutvolgani chiqar baqateraklar.
Bizlar she'r to'qiymiz unga bag'ishlab,
Shaharda adashgan sodda varraklar.

Poyiga tiz cho'kib so'raylik uzr,
Sho'rtepa – yo'limiz poylagan Vatan.
Varrakday bag'riga uchaylik,
Axir,
Bizni qishloq tuqqan!

* * *

Tillosi talandi yurak – saroyning,
Rangin tuyg'ularga ichikdi ko'ngil.
Osmonga suvrati chizildi Oyning.
Kechikdi, kechikdi, kechikdi ko'ngil.

Tun bo'yi ichimni xavotir ezdi,
Tun bo'yi ko'ksimda yig'ladi bir gul.
Tun bo'yi o'zimdan og'rindim, bezdim,
Kechikdi, kechikdi, kechikdi ko'ngil.

Kelmadi...
Izidan bormoqchi edim,
Nogoh uch tarafga ayrildi bu yo'l.
Dilimni o'ziga yormoqchi edim,
Kechikdi, kechikdi, kechikdi ko'ngil.

Orzular qanotsiz qushga aylandi,
Olis-olislarda bo'zladi bulbul.
Endi tong...
Hammasi tushga aylandi,
Kechikdi, kechikdi, kechikdi ko'ngil.

* * *

Poyimga ranglarni to'kvordi osmon,
Boshimdan to'kadi xazonlarni kuz.
Quyoshli kunlarni sevasiz chog'i,
Yuragingiz muzlab boryapti.
Afsus...

O'rindiqlar uzra zerikar g'amlar,
Bahorgi kulgular tushadi yodga.
Sezdirmay ko'nglimga kelasiz kirib –
Kechinmalar sodda, tuyg'ular sodda.

Sariqni hijronning rangi deyishar,
Tobora sarg'ayib boryapti rangim.
Kuzga muhabbatim bo'lakcha asli,
Siz mudom bahorsiz, ey, rang-barangim!

Quyoshli kunlarni sevasiz hamon,
Negadir umidvor bo'laman hanuz.
Garchi yo'llaringiz bahorga tutash,
Yuragingiz muzga aylanar.
Afsus...

* * *

Men – sizning ortingizdan shamoldek
uchgan odam,
Yoningizda biroz dam olgani keldim, ota!
Siz – Haqning saroyidan sayrga tushgan odam,
Ko'nglingizni ziyorat qilgani keldim, ota!

O'zimni oqlagani guvohlarim yo'q mening,
Dunyosida yolg'izman, panohlarim yo'q mening.
Sochdan tirnog'imgacha gunohlarim
ko'p mening,
Ko'nglingizda ibodat qilgani keldim, ota!

Ko'ksimga qayerdandir to'kilayapti bir his,
Dunyoning quvonchlari poyingizga cho'kar tiz.
Sizning eng baxtli ota, o'zimni eng baxtli qiz
Bo'lishimni bashorat qilgani keldim, ota!

* * *

Siz kelasiz – daqiqalar hayajonda,
Dukurlari urib ketar yuragimning.
Kenja botir – yigirma yil sog'inganim,
Siz kelasiz – ijobati tilagimning.

Ko'ksamanning tuyoqlari o't sochadi,
Chor tarafdan ko'k toqiga olov uchar.
Kenja botir – yigirma yil sog'inganim,
Yuragimdan chorlov uchar, chorlov uchar.

«Devlar o'ldi...» Qof tog'idan kelgan jarchi
Shamollarning tilidagi xandasidir.
Kenja botir – yigirma yil sog'inganim,
Haqning mag'rur bandasidir, bandasidir.

Qizg'aldoqlar – olov bo'lgan tuyg'ularim,
Boychechaklar sog'inchimning ranglarimi?
Kenja botir yigirma yil tushda ko'rib,
Ertaklarning orasidan tanlaganim.

Yo'llar uzun.
Manzil olis.
Siz yaqinda.
Yo'lingizga ko'zin tikkan ertakchi qiz,
Ko'ksamanning tuyog'idan o't chaqnatib,
Kenja botir siz kelasiz, siz kelasiz.

* * *

*(«Aprel hayratlari» turkumidan)*

Ko'chalarda ko'hna sehrgar kabi
Aprel sayr boshlar — qo'lida savat.
Rang sochar,
Ranglarni ariqlar labi
Kiyib boraverar qavatma qavat.

Bulutlar ko'ngilday ko'pirar, toshar,
Yomg'ir sepalaydi – iliq va xushbo'y.
Oqko'ngil dalalar yana to'y boshlar,
Yashillar, sariqlar, pushtilar o'ynar.

Mayda yaproqlarning oralarida
O'ziga zeb berib, unutib g'amni
Mittigina bulbul ulkan qalb bilan
Qo'shiqlar to'qiydi yangidan yangi.

Gullar taqib olar yoqasiga yo'l.
Tuproq mayin yomg'ir ho'plab to'yinar.
Shabada bir qitmir boladay nuqul
O'ynar sirenlarning tonggi bo'yini.

Aprel sayr qilar – ko'hna sehrgar,
Qo'lida bir savat –
Sochilar ranglar.
Va uning ortidan uyg'onib ketar
Qadimiy afsunlar jaranglab.

* * *

Havosan –
Ko'ksimda titragan nafas.
Nafassan –
Ko'ksimda to'lg'ongan havo.
Kelsang,
Sochimdan to tovonim sarmast,
Ketsang,
Sochimdan to tovonim xato.

Qushman –
Manzilini yo'qotgan Dilman,
Dilman –
Manzilidan qochgan telba Qush.
Yodingni sipqorib ichsam ko'ngildan,
G'uborlar ketgaydir.
Qush yana sarxush.

Gulgun kosalarda chayqalmoqda may.
Ey, Nafas!
Ko'ksimni to'ldir bir nafas.
Kel-ey...
Kelganingni hech qachon bilmay,
Bilmay yuragingni aylayin sarmast.
Bir nafasga kelgin.

* * *

Sen – qafas, ichingga qamalgan dunyo,
Men – qushman, ichingda senga ichikkan.
Qanotim ostida kalit bor,
Ammo
Chiqib ketolmayman eshikdan.

Men – bandi.
Hech qachon hech kim tutmagan!
Haydama...
Yaxshisi, boshimga dor tik.
Tashqarida sen yo'q –
Tashqari tuman,
Meni o'ldiradi bunday ozodlik.

Qara, ko'zlarimdan tomyapti shabnam,
Yuragi nam tortib ketganlar kammi?
Iltimos, haydama!
Gar qanot yozsam,
Sochilib ketaman.
Achinmaysanmi?



## ONAMNI SOG'INIB

*(Ukamga xat)*

Har tong uning gul lablaridan,
Kaftlariga to'kilar ismim.
Hu-uv bo'ychan tog'lardan narida,
Jonlanadi bir go'zal qissa.

O'ttiz yilki, unutgan o'zin,
O'ttiz yilki, mening g'amim yer.
U jonimga tilaydi to'zim,
Mening g'amim – ikki-uchta she'r.

Gulxayrilar shabnamlardan mast,
Tongni intiq kutayotgan chog'da
U Xudodan o'ziga emas,
Menga tole' tilab o'tmoqda.

Yomg'ir bo'lib yuvmadim bir bor,
G'ubor qo'ngan oynalarini...
Borolmayman...
Kutar umidvor,
Endi mening bolalarimni.

Alvon gullar tutmadim,
(Uyat!!!)
Sochlariga ranglar sochdim – oq.
Bilsang, menga buyuk saodat,
Hozir uning qoshiga bormoq.

* * *

Sizga yuragimni ochmadim. Ketdim,
Sizga ayro tushdi har bitta yo'lak.
Begonam, sizsiz ham murodga yetdim,
Faqat aldovlarga ko'nmadi yurak.

Sizga yuragimni ochmadim. Nega
Ko'zimdagi sirni anglamadingiz?
Tishimni tishimga qo'yib yashadim,
Men – ko'ngil ko'shkida bir asrandi qiz.

Kecha yuragimni ochmadim. Bugun
Sizsiz osmonlarim quyoshdan xoli.
Olislarda baxtga ko'milib yotar,
Mening dardlarimni sezmagan hovli.

Telba yuragimning nolalarini,
Mahzun yuragingiz bildi.
Sezmadi.
Ortimdan parishon kuzatib qoldi,
Ezilgan qavatning derazalari.

Men – yolg'on hislarga ko'nikmagan qiz,
Baribir sizsiz ham murodga yetdim.
...Nega ko'zlarimdan anglamadingiz,
Nega yuragimni ochmadim.
Ketdim?

* * *

Quyoshni uyiga kuzatar tuman,
Teraklar poyiga cho'kib borar nur.
Kuz – bizni ayirgan sariq yosuman,
Bog' chetida kuzni qarg'aydi g'urur.

Yomg'irlar qo'ynidan to'kilgan tilak,
Sochimni bo'yaydi kamalak rangga.
Sukunatni quchib mudraydi yo'lak,
Sarg'aygan xazonlar – g'iybatchi yanga.

Bog'.
Majnuntol osti.
Ikki o'rindiq
Bag'rida zerika boshlaydi shamol.
Kuz – yetim qolgan qiz, ko'ylagi yirtiq,
Kuz – barglar qo'ynida berkingan xayol...



* * *

Yana sizga keldi havasim,
Yana sog'inch qildi tantana.
Men turibman (ro'yo emasmi?!)
Eshigingiz oldida, mana.

Ochsangiz-chi?!
(Uyda hech kim yo'q!)
Xiralashar ko'nglim ranglari.
Eshityapman quloq tutib jim,
Sukunatning jaranglarini.

Ichkarida...
(Gumon toshlari
Yuragimga otildi bir-bir.)
Yuzlarimga yog'a boshladi,
Manzilini unutgan yomg'ir.

Ketsammikan? (Bu yo'llar uzun)
Eziladi beshinchi qavat.
To'rt tomonda kezinar mahzun,
Sevgi,
Sevgi,
Sevgi
Va Hasrat.

Birdan eshik ochildi! (Tangrim,
Bunchalar ham karaming kengdir!)
Siz qarshimda turibsiz kulib,
(Bu quvonchlar faqat meniki!)

... Sizga yana keldi havasim,
Yana sog'inch qildi tantana.
Men turibman (bu aslida tush)
Eshigingiz oldida, mana.

* * *

Bir vujudda jammiz, bir vujudga jo,
O'rtada masofa – borsa kelmas yo'l.
Qo'llaringni cho'zgil, onajon Havo,
Kaftingga to'kilsin to'kilsa bu Dil.

Olamlar oralab qoshingga keldim,
Yuragingga keldim, darvozangni och.
Holdan toyib keldim – paymonam lim-lim,
Bir qadam tashlasam toshgay begumon.

Ko'zlarimda qotgan lahzalik umr:
Bo'ronlar to'zg'itgan, chaqmoqlar kesgan.
Quyosh urgan umr, oy tilgan umr,
Bag'rida qop-qora tumanlar o'sgan.

Ona, dunyo bilan kelisholmadim,
Faqat mahzun kuylar chalar yurak – nay.
Men uning qo'yniga bir qo'l solmadim,
Yashashni bilmadim nega Odamday?

Havojon, men keldim, ko'zingni ochgil,
Zardoblar yutyapti ko'ksimda bir qush.
Toptalib, xo'rlanib so'lyapti bir gul,
Men keldim, hech yo'qsa, tovush ber, tovush!

Ortimda sovrilar yam-yashil olam,
Ortimga qaytmayman, yo'l bermas yillar.
Yelkalari titrab o'ksinar Odam –
Yuzini berkitib, oh, Otam yig'lar.

Olamlar oralab qoshingga keldim,
Yuragingga keldim, eshiging ochgil.
Uning ko'ngli vayron, sezdirmay devdim,
Otamning umriga to'kildi bu Dil.



* * *

Duch kelgan sharpaga o'zimni urdim,
Men kesib o'tmagan soya qolmadi.
Ko'nglimda to'polon boshlagan sirdan
Xabardor bo'lding-u,
Xabar olmading.

Shamollar uyg'ondi uryon va giryon,
Sovurilib ketdim yarim nafasda.
«Mening telba ko'nglim – ko'zlari osmon»
Terib yana soldim eski qafasga.

Chaqmoq ko'zlarimda ildizlar yoydi,
Ishqning suratini teranroq ko'rdim.
Ichimga munavvar yomg'irlar yog'di...
Qayga berkitaman endi bu sirni?!

Ko'nglim gullab ketdi qafas ichinda.
Ko'nglim to'kilmasdan gulbarglar aro
Xabar ol!
Bu sirni birga yechaylik,
Ey, musibat savdo –
Ey, go'zal g'avg'o!

* * *

– «Men qaytib kelaman...»
Havoda sigara tutuni kabi
Xira halqalandi mehribon tovush.
Jilmayding shunchalar so'lim, tabiiy,
Jilmaydim shunchalar soxta va noxush.

Ortingda men qoldim
Va meni quchib
To'rt devor,
Bir taqvim,
Qirmizi gullar.
Bir gala qush kabi oynadan uchib,
Tashqariga chiqdi parda gurillab.

Deraza silkinib sakradi pastga.
Eshik og'ir ko'chdi.
Chayqaldi.
So'ngra
Pillapoyalarni ergashtirgancha
Oniy lahzalarda yo'qoldi ko'zdan.

Devorda serrayar o'n ikki oy – yil.
Har lahza ming sog'inch etadi taqdim.
Uchinchi, to'rtinchi, beshinchi aprel...
(Bunchalar tartibni suymasa taqvim?!)

Yulqib oldim.
Ichi qora raqamlar
Kaftimdan sochilib ketdilar atay.
Kel...
Tartiblab bergil endi taqvimni,
Hisobdan adashib ketdim butunlay.

* * *

Ko'ngil ichida bir gul,
Gulning ichida ko'ngil.

(Na sen borsan, na men yo'q)

Ko'zgu ichida osmon,
Osmon ichida ko'zgu.

(Na sen borsan, na men yo'q)

Qushning ko'zida bir tush,
Tushning ichida bir qush.

(Na sen borsan, na men yo'q)

Ko'zimni yumsam sen bor,
Ko'zimni ochsam sen yo'q.
Ko'zingni ochsang men bor,
Ko'zingni yumsang men yo'q.

Qara, sen-u men jumboq
Ibtidodan intiho:

Na men yo'qman, na sen bor!

* * *

Bugun tongda bahor uyg'ondi!

Tunda yozni tush ko'rgan quyosh,
Badanida iliqlik sezdi =
Nim tabassum havoni yorib,
Izg'irinning zahrini kesdi.

Bugun tongda bahor uyg'ondi!

Chevar xola = Tabiat tikdi,
Maysalardan yashil dasturxon.
Gul qadadi oralariga
Binafsha va qoqio'tlardan!

Bugun tongda bahor uyg'ondi!

Derazaning yoriqlaridan
Ko'nglimgacha oqib kirdi mart.
Uyg'ondim-u...
Hislar uyg'ondi,
Yuragimda boshlanmoqda dard!

Yuragimni bahor uyg'otdi!!!

## SHUBHA

*(Ertakdan so'ng)*

Yana huzurimga kelyapsiz qaytib,
Yana sog'inchimday uzayar kecha.
Yana devlar mag'lub,
Makkor parilar
Aqlingizni olib qo'yar mengacha.

Darparda ichidan suzib chiqar oy,
Xonaga sochilib ketar yulduzlar.
Sizni
(Ko'zlarimda ulg'ayar shubha)
Tilsimlab qo'ydilar sehrgar qizlar.

Olisda qorayib ko'rinadi tog',
Parilar raqs etar – kuyar vujudim.
Bir qiz qahramonlik ko'rsatmaguncha,
Bilaman, sehrning ketmaydi kuchi.

Kumush yog'dularning oralaridan,
Sug'urilib chiqar bir ayol yonib...
Ko'chada bir sharpa to'sar yo'limni,
Uyalib ketaman tanib.

# SARATON

Saraton charchadi.
Eski ko'ylagin
Yuvib marvartakning shoxiga ildi.
So'ng mening yonimga – yog'och ko'prikka,
O'zini tashladi horg'in va dilgir.

Boshimizda osmon – ko'nglimday ulkan,
Yulduzlar – yuzimga toshgan sachratqi.
Somon yo'li kezar ko'zlarimizda,
Yurakni yorgudek hayrat sachratib.

Ariqlarning labi – bir uzu-u-un ayvon.
Maysalar ko'ziga qo'ngan payt tushlar –
Xira bulutlardan berkinib, suvda
Oyning siniqlari rasmga tushar.

Shunday manzarani ko'ziga qamab,
Shunday manzaraning o'tib bahridan –
Charchagan saraton xuddi singlimday,
Asta uxlab qolar mening bag'rimda.

## XAYOL. G'ALABA

Qadaming zarbidan chirs-chirs sinar yo'l,
Izingga sochilar oy – kumush tanga.
Kelarsan, olamni unutib butkul,
Ayoz qirov ekar yelkalaringga.

Deraza yo'l qarab, ko'zlari tolgan,
Yo'lak oy nurida borar eshilib.
Pardalar o'zini ko'zguga solar,
Rang izlab hushidan ketadi eshik.

Kelarsan beparvo, o'zingdan sarmast
Parishon sochini yig'ib olar tun.
Tutqichni ushlaysan...
(Men axir menmas,
Sen esa jazoga mahkumsan, mahkum).

Nigohing muzaffar.
Nigohim hazin.
Nigohim to'kilar uy bilan bitta...
(Xayriyat, yuragim yengil olar tin),
Bu xayol-ku!
Kiprik qoqaman shartta!

# SOG'INCH

Yana tolko'chaga namozshom cho'kdi,
Xira tortib qoldi kunlarning ko'zi.
«Arining iniga cho'p suqar oqshom –
Hozir ajinalar ketadi to'zib».

Kalima qaytarib, rangimiz o'chib,
Asta tarqalamiz bir ko'cha bola.
Eshiklar yopilar.
Qulf – katta tosh
Bizni ajinadan qilar himoya...

Yillar suvday oqdi.
Tollar kesildi,
Tollarning ortidan ketdi kampirlar.
Bizni qo'rqitmaydi endi ajina,
Tolko'chadan ko'chib ketgandir sirlar.

Endi tolko'cha hech ahamiyatsiz!
Bolalar – olifta! O'yinlar mulzam...
Temir eshiklarda temir qulflar,
Garchi ajinalar qo'rqitmasa ham.

Yana tolko'chaga sukunat cho'kdi,
Kunduz yonboshladi ko'zlari tinib.
Zerikkan namozshom qishloq oralar,
O'sha kampirlarni sog'inib.

## MANZARA

Hansiraydi toliqqan kecha,
O'z o'tiga o'zi qovrilar.
Qismati sho'r bulutlar bebosh,
Orzulari ko'kka sovrilar.

Qishloq yotar terga belanib,
Kun jonidan o'tganday rosa.
Rang so'raydi tundan elanib,
Bag'ri o'ngib ketgan darvoza.

To'qson yoshli hassali cholday,
Mudragancha turar so'rilar.
Quruq bo'yin yashira olmay,
Kuymalanar keksa mo'rilar.

Majnuntollar – yangi kelinchak,
Ko'zlarida sog'inchning rasmi.
Osmon – go'dak to'la belanchak,
Maysalarning kelar havasi.

Og'zini cho'g' kuydirgan tandir,
Kiyib olgan motam ko'ylagin.
O'choqlarning nigohi taxir,
Ko'zlarida oqar o'ylarim.

Choyshabiga o'ranadi tun,
Mag'rur titrar mag'rur daraxtlar.
Qora tundan qo'rqqani uchun,
Oyning yuzi oqarar battar.

* * *

Chiqmagan kinnaday buralar kunlar,
Sovuq daqiqalar olar bo‘g‘zimdan.
Ranglari uniqqan devorlar kular,
Zerikib ketyapman o‘zimdan.

Xayr, shovqinlarni kiyvolgan shahar,
Ko‘nglimga boqmading shuncha yil yashab.
Sadoqatli do‘stday ergashar sahar,
Men esa ketarman dovonlar osha.

Halovatlar izlab ketayotibman,
Ko‘ksimni ajdardek yemoqda g‘amlar.
Qo‘ng‘ir pushtalarga suv tarayotgan,
Dadam yuragimni ehtimol anglar.

* * *

Egatlarda devday bahaybat,
Izg'ib yurar qirchillama kun.
Dala – issiq non to'la savat,
Quyosh – tandir.
Purkaydi afsun.

Bulutlarni yeb qo'ygan osmon,
Yomg'irlarni ko'rar tushida.
Bargchalarni bag'riga bosib,
Bedapoya ketar hushidan.

O'tloqzorlar – yashil yo'laklar,
Qirg'oqlarga o'zini urar.
Ariqlarda kumush ko'ylakda,
Suv sindirib nurlar yugurar.

Lohaslangan majnuna tollar,
Boshlarini egar quyiroq.
Quyosh ellik daraja elar,
To'lg'onadi ingichka so'qmoq.

Kun kuyadi.
Charchagan dala,
Otashnafas kunlarni yutar.
Tutqatorlar oralab ko'hna
Sukunatlar pinakka ketar...

## KUZ

*(Qamchiq dovonida)*

Namchil havolarda aylanar tuman,
Liboslarin yechgan kamalak bog'lar.
Sarg'ish cho'qqilarda millionlab xarsang
Kulrang bulutlarni yotar quchoqlab.

Bir-birini quvlab chopar vagonlar,
Qo'l silkir yalang'och novdalar – nimjon.
Poyezd hayratlanar – yuzlab odamlar,
Oynalardan toshib chiqar hayajon.

Tog'larning uyqusi ketar ochilib,
Bir qalqib tushadi, yelkalari qor.
O', pinakka ketgan ko'hna soqchilar,
Nigohingiz qaddingizdek ulug'vor.

Bulutlar suv separ temir izlarga,
Ortda beqiyos bir manzara qolar.
Vagonlar erk berib go'zal hislarga
Qo'qonga yo'l olar Kuzni orqalab...

* * *

Harir bulutlarning chokini so'kib,
Moviy bo'shliqlarni yoryapman, ona.
Oyoqlarim yerga ketyapti cho'kib,
Osmondan-da o'sib boryapman, ona.

Bedor tuyg'ulardan sarmast yotibman,
Bosh qo'yib ko'ngilning bolishlariga.
Za'faron xazonlar yanglig' ko'ndim man,
Xastako'ngil kuzning nolishlariga.

Bir kuni bolalik do'nib ertakka,
Duoga qo'l ochar sajdagohim – Yer.
Hurlar poklik to'shab ketgan yo'lakka,
Mening yuragimdan to'kiladi she'r.

* * *

Qora ko'rpa yopinib,
Kun ketadi pinakka.
Buvim aytgan hunarmand,
Oyni qoqar falakka.

Baqalarning ovozi,
Yuragimni ezyapti.
Katta yong'oq tagida,
Sharpalarmi kezayotgan?

Men buvimning tobora
Suqilaman pinjiga.

Tolko‘chada tumanday
To‘zib yotar ajina.

Ertak boshlaydi buvim:
«Bahaybat Dev, Ko‘hi Qof...»
Ayni avjiga chiqqan
Joyida qolar uxlab.

Oyning rangi oqarar,
Yulduzchalar titraydi.
Uxlolmayman. Uxlatmas
Chirildoq – mitti daydi.

Men buvimning tobora
Suqilaman pinjiga.
Tolko‘chada tumanday
To‘zib yotar ajina.

Tush ko‘raman... «Qof tog‘in
Ezg‘ilayman tarraday[1].
O‘laksa Dev, mitti Dev,
Qulab tushar daraga...»

Men – qahramon! Pinjimga
Suqiladi yulduzlar.
Yuragimda birlashib,
Aylanadi kunduzga!

[1] Tarra – o‘simlik.

* * *

*(Betoblikda yozilgan she'r)*

Nogahon yelkamdan bosib kelar ko'k,
Qaylargadir singib ketgan havolar.
Zaminda sersoya birorta gul yo'q,
Bir tomchi shudring yo'q...
Qaqrayotir lab.

Bir kaft cho'g' oqmoqda tomirlarimda,
Yurak yurak emas – qizigan tandir.
(Sakkizinchi yanvar kuzatar zimdan...)
Men yonib ketyapman, yog'sang-chi, yomg'ir.

Devorlar ohorin to'kib ulgurgan,
Na rang bor, na havo – nafas bir yutum.
Nahotki, qoqilib ketdim shu kunga,
O'ttiz yil taqvimga chap berib yurib.

Yaxshiyam, yelkamdan bosib keldi ko'k,
Yaxshiyam, yonyapman. Bu sinov – bayram!
Qovurg'am ostida lovullaydi cho'g':
Uyg'onib kelyapti har bir hujayram.

* * *

Qo'llari sovuqdan ko'karib yanvar,
Ko'chalarga to'shar muzli ko'rpasin.
Telefon olisdan xushxabar yo'llar:
«Ukang borayapti seni ko'rgani!»

«Necha dovon oshib, necha tog' oshib,
Qo'qon shamolidek shiddat-la shoshib.
Sog'inchi sog'inchim bilan tutashib,
Ukam kelayapti meni ko'rgani?»

Ko'nglim – oromkursi,
Birpas ol-da tin,
Yanvar – mehribonim, shashtingdan tushgin.
Xush ta'birday, kecha ko'rilgan tushdan,
Ukam kelayapti meni ko'rgani!

Makkora tashvishlar, yo'l bering qani,
Ikki oyki, faqat sizni o'yladim.
Yupun yuragimning issiq ko'ylagi –
Ukam kelayapti meni ko'rgani.

Diydor, bu – ko'ngilga berguvchi taskin,
Yo'llar menga eltar yorug'lik qadrin.
Olamga anqitib mehrning atrin,
Ukam kelayapti meni ko'rgani.

Qo'llari sovuqdan ko'karib yanvar,
Ko'chalarga to'shar muzdek ko'rpani.
Qo'qondan shamoldek yeldi xushxabar:
«Ukang borayapti seni ko'rgani!»

* * *

Hozir tutlar g'arq pishgan mahal,
Yuragimda yetilgan so'zday.
Sho'rtepaning dalalarini,
Kelinchakday bezantirmish may.

Go'yo qizlar to'yga oshiqqan –
Bir-birini quvlar bulutlar.
Novdalarda sharbatlar bog'lab,
Askarlarday tizilmish tutlar.

Tabassumlar, qayg'ular sun'iy,
Sizni beton uy allalaydi.
Qani, turing, yo'lga otlaning,
Ey, umrimning avj pallalari.

Boring, momiq bo'ztuproqlarda,
Oyoqyalang choping boladay.
Charchasangiz, hu-uv otamdayin,
Yelkamga opichlab olaman.

Otquloqlar ko'nglingiz olar,
Yuzingizdan o'par yalpizlar.
Shunda... yuz beradi mo`jiza,
Uyg'onadi tabiiy hislar.

Va to'kilar g'arq pishgan tutday,
Qog'ozlarga samimiy so'zlar...

## ERTAK

*(Hamidulloga)*

Bor ekan-da yo‘q ekan,
Och ekan-da to‘q ekan.
Aslida buvimdayin,
Ertak kitob yo‘q ekan.
Mezon. Oqshom. So‘ritok.
Teraklar orasida,
Berkinmachoq o‘ynardi,
Yulduzlar norasida.
Ertakka ko‘milardik,
Uyiga qaytgach oftob.
Sen, men, Mirahmad, Bahri
Va buvim – ertak kitob.
Tushlarimga kirardi,
Uch og‘ayni botirlar.
Bugun ko‘nglimni buzdi,
O‘sha shirin xotirlar.
Bugun yulduzsiz osmon,
Unutilgan so‘ritok.
Biz ulg‘aydik... Men ketdim,
Toshshaharga kayfim chog‘.
Garchi kitobga do‘stman,
Garchi ko‘pdir ermaklar.
Endi o‘shandagiday,
Sehrlimas ertaklar.
...Bir bor bo‘ldi, yo‘q bo‘ldi,
Bir och bo‘ldi, to‘q bo‘ldi.
Buvimdayin sehrli,
Ertak kitob yo‘q bo‘ldi...

* * *

Mezon tindi.
Og'ir-og'ir qo'zg'aldi shamol,
Nimqorong'u daralarda shovulladi kuz.
Qavatlari yomg'ir shimib nam tortdi havo,
Teraklarning orasida titradi kunduz.

Qirov yutgan derazalar yo'l kutdi har kech,
Boray dedim, ko'chalarda tumanlar to'zdi.
Shunda yo'lga o'zin ekdi Buvim – qayrag'och,
Ildiz yoydi,
Ko'kka qadar shoxlari o'sdi.

Oqshom qo'ndi cho'qqilarning yelkalariga,
Qamishlarni puflay-puflay zerikdi shamol.
Tuman siyrak,
Hovurlarning oralarida,
Ko'chalarga singib ketar g'amgin bir xayol...

* * *

*(Shalolaga)*

Osmon – muhabbatga limmo-lim yurak,
Yulduzlar – undagi sirlarning aksi.
...Yana paydo bo'ldi tilsimli yo'lak
Va yana hislarning betakror raqsi.

Sargashta bog'larga xazonlar cho'kdi,
Yana ko'zlarini namladi samo.
Qizning yuragiga armonlar to'kdi,
Rangin tuyg'ularga ko'milgan dunyo.

Kitobda yashadi, sevdi, sevildi,
Umrini baxsh etdi daqiqalarga.
«Mening bahodirim...» shivirladi u,
Sog'inchlar to'kildi sahifalarga.

Deraza ortida... Qizning yonida
Yuragiga joylab butun osmonni,
Mung to'la ko'zlarga intizor edi:
Uning bahodiri – uning armoni.

Yana yulduzlarni yashirdi osmon,
Yana derazaga urildi shamol.
Qizning nigohlari o't oldi birdan,
«Sen – ko'ngil gunohi,
ketyapman, xush qol,
mening bahodirim...» shivirladi. U

Sovuqdan junjikib kitobni yopdi.
Deraza ortida... Qizdan uzoqda,
Tanish kipriklarni qirovlar o'pdi.

...Yana paydo bo'ldi tilsimli yo'lak,
Va yana hislarning betakror raqsi.
Yana murodiga yetmadi ertak,
Ko'ksimga bosh qo'ydi qiz yana o'ksib.



* * *

Go'yo kalavaning uchi yo'qolgan –
Biram chuvalashdi taqdir yo'llarim.
Ko'nglim osmonlarda adashib qolgan
Lahzalarda uni ko'proq o'yladim.

Bir kun yuragimda undi ishq – maysa,
Olam harir libos kiydi nimpushti.
Kelsa, qizg'aldoqdek yondim.
Kelmasa,
Chap ko'ksimda mushtdek narsa uvishdi.

Yovvoyi gullarday chiniqib o'sdim,
Ko'nglining pokiza olamlarida.
Sevgisi navqiron tog'larday to'sdi,
Dunyoning yig'loqi alamlaridan.

Bu qanday his bo'ldi?
Nimadir oti?
Yuragim o'syapti nurga o'ralib.
Ey, beqiyos Kulol, qanday yaratding,
Yuragidan ko'zi toza bolani?

Mana, kalavaning uchi qo'limda,
Boshimni bog'ladi unga malaklar.
Endi ajdaholar chiqmas yo'limdan,
Murodiga yetar qadim ertaklar.

* * *

Sendan olislarda
Sendan bexabar
Ko'zlaringdek tiniq mezon suvida
Qirmizi baliqlar suzadi horg'in.

Mendan olislarda
Mendan bexabar
Menga deb o'stirgan
Masih gullaring
Jon berar birma-bir
Ko'zing o'ngida.

Sen – mening sirimsan,
Men – sening siring.
Yaxshiki bu sirni
bilmaydi hech kim:
na horg'in baliqlar,
na masih gullar.

* * *

Senli havolarda to'zg'iydi mezon,
O'zgarar kunlarning yam-yashil rangi.
Derazang ortida bahaybat osmon
Kaftimday oynaga boqadi g'amgin.

(Ko'zimga ko'zgu tut,
men nur istaram!)

Haddiga erk berar nimjon shabada –
Parda oshkor qilar uyni va seni...
Nihoyat esladim ketganing badar
Va seni jannatdan haydagan sirni.

(Sen bilan bu sirni
yechmoq istaram!)

Ortingdan ergashib keldim ataylab...
Meva yo'q,
Taqiq yo'q,
Sen bor – Gunoh bor!
Derazang ortida...
Kuz suvlarida
Chayqalib oqadi olmalar.

(Taqiq qo'y...
Men esa meva istaram!)

* * *

Ko'zing singib ketdi qorachig'imga,
Kaftingga to'kildim olcha guliday.
Bunyod bo'lmasimdan avval yukingan
Sevgilim! –
Labimda titrab yotgan Nay.

Chalsam, sochilaman nafasing aro,
Chalmasam, nafasim ketyapti qaytib.
Bu qandayin tugun-
Go'zal muammo?!
Yechimini aytgil...

Yechimini aytma!
Bu Ishq ichimga,
Yanada chuqurroq ildizlar otsin.
Yanada bo'y cho'zsin.
Yanada yashnab
Sening yuragingga o'zi yo'l topsin.

Ungacha kaftimga olcha guliday
To'kil.
Singib ketgil qorachig'imga.
Labingda titrasin mening ko'nglim – nay,
Kuy bo'lib ko'nglingga sig'inay...

* * *

Soyabon.
Ko'nglingdek ezilgan chipta.
Bir yo'l – hijroningdek achchiq va uzun.
Keldim eshigingga qayta va qayta,
Yana daydi shamol kabi bosh urib.

So'ng chiptani yirtdim.
Sen esa majhul.
Hayron boqding menga va ho'l olamga.
Ayt, chipta kerakmi manzili tugul,
Umidin yo'qotgan odamga?!

Ketdim,
Oyog'imni yodingga tirab,
Chekinmasmi ruhimdagi karaxtlik?
Ortimdan ergashdi lablari titrab
Yelkalari ivib ketgan daraxtlar.

Soyalar,
Sharpalar,
Hattoki ranglar
Ketdilar o'zini olib men bilan.
Yomg'irlar tovushi aro jaranglab
Parchalandi yarim kecha ortimda.

Soyabon to'kildi...
Yo'l esa uzu-u-u-n.
Ichimda munavvar tuyg'u tirildi.
So'ng qaytdim.
Qayg'urma, ey ko'nglim huzun,
Men sengamas, endi o'zimga keldim.

* * *

O'ttiz yilki, ichimda sir,
Aro yo'lda sarson ko'nglim.
Bulbullar «Chilyosin» o'qir –
Na-da o'ldim, na tirildim.

Ko'nglim – tushunarsiz kitob,
Ko'nglim azal yig'loqi nay.
Lablaringga tegsa nogoh
Titrab-titrab so'z to'kilgay.

Bu so'zlarda borsan – hushman,
Bu so'zlardan ketsang behush.
Har tun chiqib tushlarimdan,
Sen haqda kuylaydir bir qush.

Olov sachrar, nafas borday,
Nafas yo'qday...
Ishq – tabibim.
Gar sochilib ketsam parday,
Ter, Habibim!

Bu yo'llar visolga eltar,
O'lim nima?
Tiriklik ne?
Ko'nglimga sal boqsang yetar,
Ey, Ishq!
Kel, de...

* * *

Bu ko'hna bekatda nega to'xtadim,
Qayerdan qayerga boryapman hayron?
Men kimman,
Ko'ksimda titrayotgan Kim,
Bunchalar kattarib ketyapti osmon?

Men – yo'lman,
Yodingday cho'zilgan yo'l bu,
Sening hijroningday yorug' manzilman.
Ko'ksimda titragan ey munir Jodu,
Qo'llaringda ko'ngli chizilgan Gulman.

Bu ko'hna bekatda ishq ilmi pinhon...
O'zingdan o'zingga boryapman tashna.
To'xtasam, kattarib ketyapti osmon,
Agar yursam, osmon – ko'nglimning naqshi.

Men senga boryapman...

* * *

Oy tovushsiz sindi.
Titrab ketdi suv.
Yulduzlar sochildi – jonsarak qushlar.
Olislarga boqib bir-bir jon berar
Iskandar sirini yutgan qamishlar.

Uvada bulutlar suzadi horg'in,
Uzoqlarga – so'nggi manzil qoralab.
Qunishib mudraydi xasta Noyabr
Yalang'och tutlarning oralarida.

Namxush ko'chalarda sudralar shamol.
Qishloq pinak buzmas,
Shirin tush ko'rar.
Tushiga daryoda cho'milayotgan
Sodda kampirlarning yoshligi kirar.

Teraklar uchida izg'irin izg'ir,
Mo'rilar yo'talar tutun qaytarib.
Shu kecha ovozin so'nggi bor sozlab,
Kuz hayot haqida qo'shiq aytadi.



* * *

Oy tovushsiz sindi.
Titrab ketdi suv.
Yulduzlar sochildi – jonsarak qushlar.
Olislarga boqib bir-bir jon berar
Iskandar sirini yutgan qamishlar.

Uvada bulutlar suzadi horg'in,
Uzoqlarga – so'nggi manzil qoralab.
Qunishib mudraydi xasta Noyabr
Yalang'och tutlarning oralarida.

Namxush ko'chalarda sudralar shamol.
Qishloq pinak buzmas,
Shirin tush ko'rar.
Tushiga daryoda cho'milayotgan
Sodda kampirlarning yoshligi kirar.

Teraklar uchida izg'irin izg'ir,
Mo'rilar yo'talar tutun qaytarib.
Shu kecha ovozin so'nggi bor sozlab,
Kuz hayot haqida qo'shiq aytadi.



* * *

Yashil yaproqlarning yuziga urdi,
Sog'inchimning nuqsi.
Olam za'faron.
Ranglarni sochqilab shamol yugurdi,
Ko'nglimga kuz keldi hayrondan hayron.

Ko'kda shakl chizib uchdi turnalar –
Quyoshning nurini ichmagan hali.
Bulutlar to'zg'idi – surmarang...
Axir, kelmaysanmi ko'rgali?

Yuragim kattarib ketdi bu g'amdan,
Kuz!
Atrofda esa ko'klar xavotir...
Mening ko'ngil otlig' ko'hna kulbamda,
Qara, muvozanat buzilayotir.

Tezroq kelmaysanmi?..

## KO'NGIL BER...

« – Tiq-tiq».
« – Kim u?»
« – Chanqagan musofir.
Eshikni oching.
Turibman bir ho'plam umidga tashna».
« – Bu ko'hna qasrda hamma narsa bor
eshikdan boshqa!»

O'zimni uraman duch kelgan yoqqa,
O'zini yo'qotgan shamolday ojiz.
Qaylardadir mayin yomg'irlar yog'ar,
Qaylardadir – mening ko'nglimdan olis.

Galdagi manzilni sekin chertaman.
« – Kim u?»
ovoz berar ming yillik ovoz.
« – Hech kim...
Umid kerak?
Topiladimi?
Bir yutum, xolos».

Gulchin eshik zarda bilan yopilar.
« – Bir qatrayam suv yo'q.
Umid so'raydi...»
« – Bor deb o'ylabman-da...»
(Siz ham men kabi
Umidin dunyoga yutqazgan daydi.)

« – Darvozani oching. Umid...»
« – Bor.
Evaziga nima bera olasan?"
« – Faqat bir ko'ngil bor osmondan ulkan!..»
Sovuq tirjayadi qarshimda odam.

Ko'ngil qo'ldan ketdi.
Kimga boy berdim?
Nahotki, yutqazdim so'nggi imkonni
(Shu-u-ncha asrab gulni asragan kabi...)
Qayerda asrayman bir tutam Jonni?


Men – ko'hna musofir
Shuncha yil yashab
Bir chimdim aqlini ishlatmagan, oh!
Asli bu dunyoning umidlaridan,
Sening dargohingning eshigi ko'proq.
Ko'ngil ber...



# MUNDARIJA

«Bizni qishloq tug'di...».....3
«Tillosi talandi...».....4
«Poyimga ranglarni...».....5
«Men – sizning ortingizdan...».....6
«Siz kelasiz...».....7
«Ko'chalarda...».....8
«Havosan...».....9
«Sen–qafas...».....10
Onamni sog'inib.....11
«Sizga yuragimni ochmadim...».....12
«Quyoshni uyiga kuzatar...».....13
«Yana sizga keldi havasim...».....14
«Bir vujudda jammiz...».....15
«Duch kelgan sharpaga...».....17
«Men qaytib kelaman...».....18
«Ko'ngil ichida bir gul...».....19
«Bugun tongda...».....20
Shubha.....21
Saraton.....22
Xayol. G'alaba.....23
Sog'inch.....24
Manzara.....25
«Chiqmagan kinnaday...».....26
«Egatlarda...».....27
Kuz.....28
«Harir bulutlarning...».....29
«Qora ko'rpa yopinib...».....29
«Nogahon yelkamdan...».....31
«Qo'llari sovuqdan...».....32
«Hozir tutlar...».....33
Ertak.....34

«Mezon tindi...».....35
«Osmon muhabbatga...».....36
«Go'yo kalavaning uchi...».....38
«Sendan olislarda...».....39
«Senli havolarda...».....40
«Ko'zing singib ketdi...».....41
«Soyabon...».....42
«O'ttiz yilki...».....43
«Bu ko'hna bekatda...».....44
«Oy tovushsiz sindi...».....45
«Yashil yaproqlarning...».....46
Ko'ngil ber.....47



## BASHORAT OTAJONOVA

*1986 yili Farg'ona viloyatining Buvayda tumanida tug'ilgan. O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetida tahsil olgan. She'rlari respublika matbuotida e'lon qilingan. Ayni paytda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida faoliyat ko'rsatmoqda. Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminari ishtirokchisi (2003).*

ISBN 978-9943-565-69-2

9 789943 565692